

YOSH AVLODNI TARBİYALASHDA NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAN
FOYDALANISHNING PEDOGOGIK ASOSLARI

Abdullayev Akram Suvanovich

Osiyo Xalqaro universiteti I-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida Bahovuddin Naqshbandning ta'limiy- axloqiy qarashlari, boy merosidan foydalanish hamda milliy tarbiyamizning rivojlanishida Naqshbandiya ta'limotining yoshlar faoliyatida tutgan o'rni o'rganish.*

Kalit so'zlar: *Bahovuddin Naqshband, axloq, Naqshbandiya, tariqatlar, ilm, ma'naviyat, sufiylik.*

Annotation: *To study the role of Bahovuddin Naqshband's scientific heritage in the development of contemporary pedagogy, the use of Bahovuddin Naqshband's educational and moral views, rich heritage in the process of teaching students.*

Key words: *Bahavuddin Naqshband, morality, sect, Naqshbandiya, science, spirituality, sufism*

Аннотация: *Изучить роль научного наследия Бахоуддина Накиббанды в развитии современной педагогики, использование воспитательных и нравственных взглядов Бахоуддина Накиббанды, богатого наследия в процессе обучения студентов.*

Ключевые слова: *Бахауддин Накиббанд, нравственность, секта, Накиббандия, наука, духовность, суфизм.*

Kirish

Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalarni qamrab olgan holda keng islohotlar amalga oshirildi hamda bu ishlar hozirgi davrda yangi bosqich va keng ko'lamda yanada izchil davom ettirilmoqda. U xoh davlat boshqaruv tuzilmasi bo'lsin, xoh sog'liqni saqlash, sport, ta'lim – qo'yingki, barcha jabhalarda ijobiy natijasini bermoqda.

Ta'kidlash joiz, bugungi globallashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'nomazmunini tushunib yetishimiz lozim.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Inson mohiyati moddiy va ma'naviyatning tutashuvida namoyon bo'ladi. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlari o'z tabiati bilan yaratilgan. Zero, ma'naviyat va uni anglash masalalariga oqilona, konkret sharoitni hisobga olib yondashish -komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Bedil aytganidek: "me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi". Shunday ekan, jamiyatda inson o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Binobarin, ma'naviyat

– ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'prik. U otobobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ular to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Jahonga mashhur ajdodlarimiz – buyuk davlat arboblari, sarkarda Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi nafaqat mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilm-fan bobida o'rnak bo'lganlar, balki o'z askarlari, bo'lajak el-yurt himoyachilari tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Furqat singari bashariyat sivilizatsiyasi va uning porloq kelajagiga beqiyos, katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz hamda din ilmida olamga dong taratgan Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Yassaviy kabi ulamolarimiz yoshlarga axlokiy, ma'naviy kamolot bo'yicha saboq berganlar.

Milliy ma'naviyatimiz, madaniyatimiz taraqqiyotida Bahouddin Naqshbandning xizmatlari beqiyos. Bu ulug' bobokalonimizdan qolgan ulkan ilmiy, ma'naviy meros, u tomonidan yaratilgan o'lmas ta'limot asrlar osha bugun ham barkamol avlod tarbiyasi, shaxs kamoloti yo'lida mayoq vazifasini o'tamoqda. Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy tarixda Bahouddin, Shohi Naqsh-band, Bahouddin Balogardon, Xojai Buzruk nomlari bilan ma'lum va mashhurdir. Bahouddin Naqshband – komil inson timsolidir. U o'z ta'limotidagi g'oyalarga o'zi to'la-to'kis amal qilgan. U otasi bilan kimxobga naqsh bosgan va dehqonchilik qilgan.

Muxokama va natijalar

Markaziy Osiyoda XIV asrda paydo bo'lgan yana bir yirik tasavvufiy tariqat – «Naqshbandiya» tariqatidir. Bu tariqat Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liqdir. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy o'z muridi Sayyid Mir Kulol bilan Qasri Hinduvondan o'tayotganda: «Bu tuproqdan bir er isi kelmoqdadir. Shu zoti sharif barokatidin Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylangay» debdi. O'sha paytda hali Muhammad Bahouddin tug'ilmagan, balki onasining qornida ekan. Bir necha vaqtdan keyin yana o'sha yerdan o'tib: «Haligi erning isi ortiqroq bo'lubdur», deydi. Darhaqiqat, shu vaqtlarda Muhammad Bahouddin tug'iladi. Tug'ilganiga uch kun to'lganda Bahouddinni Boboyi Samosiy ma'naviy farzandlikka qabul qilib, Mir Kulolga Bahouddin tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishni topshiradi.

Hazrat Sayyid Muhammad Bahol-haq val-millat vad-dunyo ud-din Naqshband ibn Sayyid Jaloliddin naqshbandiya tariqatining ulug' mashoyixlaridandir. Bu kishi sohibi karomat va olimi rabboniy, Qur'oni Karim va payg'ambar alayhissalomning buyurganlarini xalqqa yetkazib, islom dini rivojiga muhim hissa qo'shgan valiyulloh hisoblanadi.

Hazratning ismi sharifi Muhammad, otasining ismi Muhammad Jaloliddin, lekin G'arbu Sharqda Hazrat Bahouddin, Xoja Buzurg (Buyuk Xoja), Shohi Naqshband nomlari bilan mashhurdir.

“Tuhfatul ansob” da Bahouddin nasablari haqida shunday ma'lumot beriladi: Hazrat Bahoud haq vad-din Sayyid Muhammad ibn Sayyid Muhammad Jaloliddin Buxoriy ibn Sayyid Burhoniddin Xoldor ibn Sayyid Abdulloh ibn Sayyid Zaynulobiddin ibn Sayyid Sha'bon ibn Sayyid Burhon ibn Sayyid Mahmud Rumiyy ibn Sayyid Ishoq ibn Sayyid Taqi ibn Sayyid Mahmud Jome ibn Sayyid Ali Akbar ibn Hazrat Imom Hasan Askariy ibn Hazrat

Imom Ali Taqi ibn Imom Muhammad Taqi ibn Hazrat imom Ali Muso ar Rizo ibn Zaynulobiddin ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib.

Hazrat ona tomonidan Siddiqiydir, ya'ni nasablari Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi.

«Tuhfat az-Zoirin» da Sayyid Mir Kulolning bir yuz o'n to'rtta xalifa (o'rinbosar)lari bo'lgani, ularning yetugi Mavlono Orif Deha-Deggaroniy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Jamol Dehai Osiyoiy, Shayx Shamsuddin Kulol, Shayx Yodgor, Xoja Shayx Darzuniy va Mavlono Jamoliddin Keshiy deb yozilgan.

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Sayyid Mir Kulol Bahouddinga tariqat suluki (yo'li) va odobni, zikr talqinini o'rgatgan. Zikr so'zining ma'nosi «yod-lash», «eslash», ya'ni Allohni yod qilish demakdir. Hazrat Bahouddinning piriga ixlosu e'tiqodini quyidagi rivoyatdan bilsa bo'ladi. Pirlari Mir Kulol xumdonga o't yoqishni buyuribdi. Havo issiq, saraton payti ekan. Bahouddin xumdonga o'tin qalab turib, egnidagi bor davlati hisoblanmish po'stinni yechib olovga tashlabdi. Bu holni ko'rib Mir Kulol: «Ey farzand, xumdonga kirib po'stiningizni oling, hali u sizga ko'p darkor bo'ladi! », debdi. Bahouddin esa e'tiroz bildirgan: «Agar u tosh yoki temir bo'lganda ham xumdonda allaqachon erib ketardi. Mening po'stinimdan nom-nishon qolmagandir». Mir Kulol: «Ey Bahouddin! Haq Subhanahu taolo ishqiq otashida necha yildan beri kuyib kelyapsiz, lekin bu po'stiningizga ul otash ta'sir qilmadi. Vaholanki, egningizda doimo shu po'stin bor edi. Xumdondagi olov zinhor-zinhor ul po'stinni kuydirolmagay. Zero mashoyixlar: «Kasi so'xtaro du bora biryon nakunand», ya'ni, kuygan odamni ikkinchi marotaba o'tga tashlamaslar, deganlar. Qo'rqmay xumdonga kiring! » debdi. Bahouddin bismilloh, deb lov-lov yonib turgan xumdon ichiga kirsas, po'stinining hatto bir tukiga ham olov ta'sir qilmagan ekan. Shunda Mir Kulol: «Ey farzand! Darveshlar zohirida bo'lgan narsalarga dunyo otashi ta'sir etmas. Siz darveshlar qalbidan joy olmoqqa say-harakat aylang, shunda do'zax otashi sizni kuydirolmas», degan ekan.

Bir soatdan so'ng suhbat tugab, Mir Kulol as'hoblari bilan ko'chaga chiqib, haligi muridning qo'lidan tutib: «Ey nodon! Ko'ngil ko'zini och va yuqoriga qara, tamosho qil! » debdi. Ko'nglidan shubha o'tgan murid yuqoriga qarasa, Ka'batulloh Amir Kulolning boshi tepasida jilva kilib turibdi.

Ruboyi:

In dida bipo'sh, to dilat dida shavad,
Z on dida jahoni digare dida shavad.
Gar ravzani dil ba zikri Haq bikshoyi,
Dar jomi falakhar chi buvad dida shavad.

Mazmuni: Ko'zlaringni yum, to ko'ngil ko'zlari ochilsin, zero ko'ngil ko'zi ila o'zga jahonni ko'rib bo'ladi. Agar ko'ngil ravzani (darichasi) Haq zikri ila ochilsa, falak komida ne ish bo'lsa, hammasini ko'rsa bo'ladi.

Tasavvufning mashhur bilimdoni, atoqli sharqshunos Ye. E. Bertelsning yozishicha, Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik yotadi... Shunga binoan, Bahouddin Naqshband umri bo'yi dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida unchalik katta bo'lmagan yeriga bug'doy va mosh ekar ekan. U uyida hech qanday mol-dunyo va boyluk saqlamagan. qishda qamishlar ustida, yezda esa bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo'lmagan. Hazrati Naqshband butun umrini o'z xohishi

bilan faqirlik va yo'qsilliqda o'tkazgan. Zero, bu tariqatning asl aqidasi — «Dil ba yor- u, dastba kor» - ya'ni «doimo ko'ngling Allohda bo'lsin, qo'ling esa ishda», degan g'oyani ilgari suradi. U o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan- tutganlarini yetim- yesirlarga, beva-bechoralarga in'om etgan, hukmdorlardan doimo o'zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon ta'magirlik qilib yashamagan.

Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo'lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab hozirgi Qarshi shahriga boradi. Uch oy undan ta'lim oladi. Bahouddin Naqshbandning bu pirga ixlosi baland bo'lgan, ayni chog'da Qusam shayx ham uni o'z o'g'lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi.

Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda so'fiylik bilan o'tgan. U ikki marta haj qilgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati - kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlashni gunoh deb bilgan. Quyidagi baytlar Hazrat Bahouddin Naqshband qalamiga mansubdir:

Na maro mafrash, na mafrashkash,
Na g'ulomonu turku turkashkash.
Hama shab chun sagoni qahdoni
Sar ba dum ovaram ba xasmi xush.

Mazmuni: na menda palos boru na uni ko'tarib yuruvchi kishi bor. Na turk g'ulomlarim boru na g'ulomlar ustidan nazorat qiluvchi kishiga ehtiyojim bor. Har kecha xuddi samonxona itlari kabi (ya'ni egasiz itlar kabi) dumimni ustiga boshimni qo'yib yotaman (hamma narsani tark etganim uchun).

Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa ish - mehnat bilan band bo'laversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, demakki, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo'l siltamay turib ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi.

Hazrat Bahouddin “Hayotnoma”, “Dalelul oshiqin” nomli kitoblar muallifidir.

Naqshbandiya tariqati Qur'oni Karim va hadisi sharifdagi ta'limotga asosan shakllangan. Tariqat pirlarining asosiy maqsadi - payg'ambar alayhissalomning sunnatlarini qayta tiriltirish. Ikkinchi vazifalari esa bid'at va xurofotga qarshi kurashish. Zero, payg'ambar alayhissalom: “Bid'at va xurofotga berilganlar eng yomon kishilardir, bid'at- xurofotga berilgan odam to uni tark etmaguncha uning qilgan savob ishlarini Tangri qabul qilmaydi”, deganlar. Qalb Allohning nazargohidir. Alloh nazargohi hisoblangan qalbni pokizalash- naqshbandiya ta'limotining asl muddaosidir. “Naqsh band bar dil band”, ya'ni Alloh nomini qalbingda naqsh ayla, deyiladi ta'limotda.

Bir rivoyatda Hazrat Bahouddin qo'llaridan bir necha yil tuproq hidi arimaganligi haqida xabar berilgan. Negaki, ul zoti sharif kechalari ko'cha-ko'ylarni kaftlari bilan siypalab, o'nqir-cho'nqirlarni tekislab, yo'lda yotgan xas-xashak, tikanlarni terib yurarkanlar. Bundan maqsad, yo'ldan o'tayotib biron namozxon yo so'qir kishi to'qinib yiqilmasin, aziyat chekmasin ekan. Bunday ishlarni kechasi qilganligiga sabab shuki, hech kim ko'rmasin. Zero Alloh yo'lida

qilinadigan xizmatni yolg'iz Alloh bilmog'i joiz. Payg'ambar alayhissalomning: «Yo'lda yotgan tikan shoxlarini olib tashlagan odamning oldingiyu keyingi gunohlarini Tangri kechadi» degan hadislariga muvofiq Hazrat Bahouddin ana shu xizmatlarni bajargan.

Naql qilinishicha, Bahouddin Qasri Orifonda qurilayotgan masjidida xizmat qilib, masjid tomiga tuproqni boshining ustiga qo'yib tashib, quyidagi baytni zamzama qiladi:

Ba jon mekunam kori tu, charo nakunam,

Ba sar mekasham bori tu, charo nakasham?!

Mazmuni: Alloh, sening xizimatingni jonim bilan ado qilaman, nega uni ado etmaskanman? Sening yukingni boshimda ko'taraman, nega ko'tarmas ekanman?!

XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan «Naqshbandiya» ta'limoti Afg'oniston orqali Hindistonga va boshqa islom yurtlariga shiddat bilan tarqala boshlaydi. Naqshbandiya ta'limoti Temurning mo'g'ullar iste'losiga qarshi kurash, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishida, temuriy davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

XV asrning ko'p olim-fozillari, davlat arboblari, san'atkorlari Naqshbandiya ta'limotidan keng foydalandilar, unga o'ta ijobiy munosabatda bo'ldilar. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) davrida, undan keyingi XV-XVI asrlarda bu jarayon ancha tezlashadi. Naqshbandiya tariqati XVI asrda Xoja Muhammad al-Boqiy Kobuliy (vafoti 1605) Hindistonga borgandan so'ng Hind tuprog'ida ham avj oladi. Bu mashhur mutasavvuf olim Afg'on va Hind yurtlarida Xoja Boqibillo nomi bilan mashxurdir. Uning shogirdi Xoja Ahmad Foruq Sirhindiy (1563-1624) esa Naqshbandiya ta'limotining XVII asrda Hindistonda yoyilishida katta rol o'ynagan. Bahouddin Naqshband vaqt haqidagi ilmni inson kamolotining asosiga qo'ydi. Uning tarixiy xizmatlaridan biri "Vuqufi zamoniyy—zamon, vaqtdan ogohlik" rashhasini naqshbandiya ta'limotiga asosiy tamo-yil sifatida kiritdi. Vuqufi zamoniyy — inson o'zi yashayotgan davr, zamon qanday kechayotganligidan ogoh bo'lishi, umr bir bor berilishi va inson uni xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim, g'aflatda qolmasligi, loqayd bo'lmasligi, ogoh, hushyor, daxldor bo'lishi kerak, degan mazmun-mohiyatni anglatadi.

Alloma qalb haqidagi ilmni ham kashf etib, uni naqshbandiya ta'limotining asosiga qo'ydi. U kishi "vuqufi qalbiy", "qalbdan ogoh bo'lish" rashhasi — hayotbaxsh o'gitini aytib, naqshbandiya tariqati tamoyili sifatida joriy etdi. Umuman tasavvuf ahli qalb masalasiga juda katta e'tibor beradi. Bu masalada Bahouddin Naqshbandgacha ko'p fikrlar aytilgan, asarlar yozilgan, lekin aynan shu ulug' zot "vuqufi qalbiy" tushun-chasini inson kamoloti uchun zaruriy tamoyil sifatida naqsh-bandiya tariqatiga kiritdi.

Bahouddin Naqshbandning "Avrod" risolasi, u kishining aytganlari jamlangan Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" asarida aynan qalb insonning jismoniy va ruhiy olamini bir-biri bilan bog'lab turgan markaz ekanligi, qallda naqshlangan narsa xotirada muhrlanishi, qalb holati insonning butun holatini belgilashi va shuning uchun qalbni poklab turish, uni tashqi ta'sirlardan, yomon hamsuhbatlar, yomon hissiyotlardan asrash lozimligini ta'kid etganlar.

Bu ulug'pir nafsni tarbiyalashning eng maqbul mukammal yo'lini topgan. Naqshbandiya ta'limotidagi "Dast ba kor"lik, mehnat qilish va barchaga xolis yaxshilik qilish g'oyasi nafsni tarbiyalash vositasi bo'lgan. Bahouddin Naqshband "Bizning tariqatimiz suhbatdir, xilvatda

shuh-ratdir va shuhratda ofatdir", deganlar. Bu tariqatda chilla o'tirish, xilvatga chekinish, uzoq muddat pirning xizmatida bo'lish bo'lmagan. Natijada tariqat ahlining oilasiga, qon-qarindosh, mahalla va Vataniga foydasi tekkan.

1389 yil Bahouddin Buxoroi sharif yaqinidagi Qasri Orifon (Kogon tumani) da vafot etgan. Juda ko'p shoirlar hazrat vafotiga atab tarix bitganlar, lekin eng mashhuri mana bu:

«Raft shohi Naqshbandon Xojai dunyovu din,

On ki budi shohi rohi dinu davlat millatash.

Maskanu ma'voi chun bud Qasri Orifon,

«Qasri irfon» zin sabab omad hisobi rehlatah».

Mazmuni: Dunyoda dinning xojasi shohi Naqshband (Bahouddin) vafot qildi, u dinu davlatning shohi edi. Uning maskanu ma'vosi Qasri Orifon bo'lgan, shu sabab vafoti tarixi «Qasri irfon» dan chikadi.

«Qasri irfon» ning abjad hisobi xijriy 791 (1389) yil bo'lib, shu yili Hazrat Naqshbandiy vafoti qayd etilgan.

Xulosa

Bahouddin Naqshband hayoti davomida muhtoj, ojiz insonlarga doimo yordam qo'lini cho'zgan va buni xufyona amalga oshirgan. Umrining yetti yilida hayvonlarga qaragan, yetti yilida yo'llarni tozalagan, yetti yil mobaynida halol luqma uchun riyozat chekkan. Umuman u butun borliqqa shafqat bilan, mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lib, hayotida faqat ezgu ishlarni amalga oshirgan. Shuning uchun uning hayoti biz uchun ibratdir. Alloma valiy tushunchasini to'g'ri ta'riflab, haqiqiy valiy o'zgalarni hidoyatga boshlashi, tarbiya qilishi mumkinligini asoslab bergan.

Xulosa qilib aytish lozimki, Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot Sharq xalqlari insonparvarlik dunyoqarashining shakllanishida katta yaratuvchi kuchga ega. Bahouddin Naqshband tabiat, barcha tirik jonzotu o'simliklar, hayvonu insonlarga birdek mutlaq ezgulik, mehr-shafqat ko'rsatishdek orifiy talabni ilk bor bashariyat va koinot, borliqning umumiy va birdan-bir fundamental tamoyili darajasiga ko'targan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Buxoronoma" A. Xalilov №78-son, 27.07.2017 yil
2. «Xazrat Baxovuddin Nakshband» Sadridin Salim Buxoriy «Dilda yor» kitobidan. Toshkent.1993 yil
3. «Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi» G.N. Navro'zova - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, 2021. - 244 b.
4. Raximov K. Tariqat xudjagan-nakshbandiya i sem pirov / per. s uzbek. yaz. I.R. Gibadullina. - Kazan: ID «MedDoK», 2020. - 180 s.
5. SH. Bobojonov. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI «MODDIY-MA'NAVIY MEROS VA UMUMBASHARIY QADRIYATLAR» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 12-KITOB TOSHKENT -2020

6. Navro'zova G.N. Abdulxoliq Gijduvoni. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2020. – B. 108.
7. Navro'zova G.N. Naqshband nomi ila arjumand // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2022. – № 4. – B. 205–209.
8. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – kamolot yo'li. Toshkent : Fan, 2007. – B. 3
9. Navro'zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – Toshkent : Fan, 2021. – 244 b.
10. Navro'zova G.N., Zoirov E.X. Buxoroi Sharifning Yetti Piri. O'zbek, rus va ingliz tillarida. – Toshkent : LESSON PRESS MCHJ nashriyoti, 2022. – B. 204.
11. Razzoqov G., Rahimov K. Xojagon naqshbandiya tariqati va yetti pir. – Toshkent : O`zbekiston, 2020. – B. 168.
12. Raxmatova X. Naqshbandiylikning jahoniy ta'limotga aylanishida Xoja Ahror Valiyning o'rni // Sino. – 2008. – № 31. – B. 114–118.
13. Sayfiddin S. Yetti pir (dunyo murshidlari). – Toshkent : O`zbekiston, 2019. –B. 4.
14. Tasavvuf va naqshbandiylik (Manbalar va hikmatlar) // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Sayfiddin Sayfulloh. – Toshkent : O'zbekiston, 2019. – B. 192.
15. Usmon T. Tasavvuf tarixi. – Toshkent : Istiqlol, 1999. – B. 180.
16. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot (Obi hayot tomchilari). – Toshkent : Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. – B. 537.
17. Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy. Orifnoma / Tarjimon Sadridin Salim Buxoriy, Isroil Subhoni. – Toshkent : Navro'z, 1994. –16 b.
18. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent : Movarounnahr, 2004. – B. 256.
19. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 56 b.
20. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.” Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 104 b.
21. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.” O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent : “O'zbekiston”, 2017. – 48 b
22. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.” /Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 592 b.